



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT SHAHRINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

2025-YIL YANVAR (DASTLABKI MA'LUMOT)




Sanoat statistikasi
boshqarmasi
Tel.: 71-203-80-03 (35 10)

Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi

(2025 - yil yanvar oyida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar oyida shahar korxonalari tomonidan 10,2 trln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 110,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (71,1 %)ni hamda ishlab chiqarish hajmi 7,2 trln.so'mni tashkil etdi.




B – Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C – Ishlab chiqaradigan sanoat D – Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, E – Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 12,3% ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 32,5 %ga o'sishi kuzatildi. Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – 2,2% ga, tog'kon sanoati va ochiq konlarda ishlash – 0,7 % ga kamaygan.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2025-yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,9 trln so'mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmining 18,3 % ini tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar oyida, % da)




Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Gaz kondensati




Tabiiy gaz



Neft




Chaqiq tosh



Togʻ- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar	2025-yil yanvar	Farqi +/-
Neft, <i>ming t.</i>	51,3	46,9	- 4,4
Tabiiy gaz, <i>mln. kub.m.</i>	2 785,7	2 780,4	-5,3
Gaz kondensati, <i>ming t.</i>	63,2	56,1	- 7,1
Chaqiq tosh <i>ming t.</i>	6,1	9,4	3,3

Ishlab chiqaradigan sanoat




2025-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7,2 trln.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 99,3 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,
(2025- yil yanvar oyi% da)**



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 3,4 % ni (2024-yilning yanvar–oyida – (5,7%), o'rta-yuqori texnologiyali – 20,1 % (22,2%), o'rta-quyi texnologiyali –36,6 % (31,8%) va quyi texnologiyalisi – 39,8 % (40,3%)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 19,1 % (2024-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 101,1 %), mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 17,3 % (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 112,4 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 14,3 % (2024-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 113,7 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 4,8 % (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 114,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 4,8 % (2024-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 140,1 %) ni tashkil etdi

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati


2025-yilning yanvar oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 859,4 tonna Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar (139,2 % ga oshgan), 2 827,6 tonna paxatadan yigirilgan ip (73,9 % ga oshgan), 20 000 ming dona Trikotaj yoki to'qilgan ustki kiyimlar (105,3 % ga oshgan)

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar



Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj polotnolar




Yumshoq bug'doy va spelta uni




Pivo




Aroq




Uzum vinosi



Tamaki mahsulotlari



Paxtadan yigirilgan ip



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari
tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar	2025-yil yanvar	Farqi +/-
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, <i>ming tonna.</i>	4941,0	3182,3	-1758,7
Paxtadan yigirilgan ip, <i>ming tonna.</i>	3824,3	2827,6	-996,7
Mashinada yoki qo‘lda to‘qilgan trikotaj polotnolar - <i>tonna.</i>	758,8	1000,6	241,8
Pivo – <i>mln litr</i>	5211,6	4065,8	-1145,8
Sovutgich va muzlatgichlar - <i>ming dona</i>	5877,0	20325,0	14448
Tamaki mahsulotlari, <i>mln. dona</i>	233,9	201,2	- 32,7
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo‘yoqlar va laklar, <i>tonna</i>	656,3	889,1	232,8

Metallurgiya sanoati

(yanvar oyida)



FHI
% da



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar oyida metallurgiya sanoati ulushi 19,1 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 130,9% ga ko'paygan bo'lsa,

2025-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 20,1% ni tashkil qilib, fizik hajm indeksi esa, 113,7 va ishlab chiqarish hajmi 1456,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish


(yanvar oyida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar oyida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,1% ni, uning fizik hajm indeksi esa 118,4% ga oshgan bo'lsa,

2025-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 50,7 % ni va ishlab chiqarish hajmi 322,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



FHI
% da



Oziq- ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


(yanvar oyida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar oyida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,7% ni, uning fizik hajm indeksi esa 95,1 % ni tashkil etgan bo'lsa,

2025-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 11,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 109,8% ni va ishlab chiqarish hajmi 1 102,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




FHI
% da



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

(yanvar oyida)

FHI
% da



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar oyida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,3% ni, uning fizik hajm indeksi esa 30,4% ga oshgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,1% ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 93,7% ni va ishlab chiqarish hajmi 799,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.


To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar oyida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,1% ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 88,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2025- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,1% ni tashkil etib, fizik hajm indeksi 114,0% ga tashkil qilib, ishlab chiqarish hajmi 370,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

FHI
% da




Kiyim ishlab chiqarish sanoati

(yanvar oyida)



FHI
% da



2024-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,6% ni, fizik hajm indeksi esa 79,0% ni tashkil etgan bo'lsa,


2025-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4 % ni, fizik hajm indeksi 104,2% ni, ishlab chiqarish hajmi esa 103,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish


(yanvar oyida)

2024-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,4% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 121,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2025-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,3% ni, fizik hajm indeksi 118,8% ga oshdi, ishlab chiqarish hajmi esa 237,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




**FHI
% da**



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

(yanvar oyida)

**FHI
% da**




2024-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 46,1% ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2025-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6% ni, fizik hajm indeksi 75,1 % ga ko'paygan bo'lib, ishlab chiqarish hajmi 41,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

(yanvar oyida)



2024-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,8% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 60,7% ga oshgan.

Shuningdek, 2025-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,4% ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi 92,5% ni, hamda ishlab chiqarish hajmi 243,9 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


(yanvar oyida)

2024-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, rezina va plast-massa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 115,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2025-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,4% ni, fizik hajm indeksi 163,2% ni hamda ishlab chiqarish hajmi 247,5 mlrd.so'mni tashkil etdi.



**FHI
% da**




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

(yanvar oyida)

trln.
so'm



FHI
% da




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 967,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 9,5% ini) tashkil etdi.

2025-yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 32,5% ga oshgani kuzatildi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

(yanvar oyida, % da)

2024- y.



2025- y.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar	2025-yil yanvar	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	370,9	336,2	-34,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1 431,2	2 624,1	1 192,9
Elektroenergiya uzatish bo'yicha xizmatlar, mln so'm.	156 ,7	172,5	15,8,

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

(yanvar oyida)



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,4 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8% ini) tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

(yanvar oyida, % da)



Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar	2025-yil yanvar	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	31,1	34,1	3
Xavfli bo'lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy, tonna	17,7	11,5	-6,7
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mlrd. so'm	50,3	49,2	-1,1

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 146,0% ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 109,8 % ga o'sish kuzatildi, tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash 98,8 %ni tashkil etdi.

**Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi
tashkil etilgan sanoat korxonalari**
(2025-yil 1-fevral holatiga ko'ra)

Bugungi kunda Toshkent shahrida 10,8 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda.

2025-yilning yanvar oyida Toshkent shahrida 135 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi.

Sanoat statistikasi bo'limi

Tel.: (71) 203-88-16